

O'ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING O'XSHASH JIHATLARI

*Xummedova Ogulnavat Mavlanberdiyevna,
Nukus davlat pedagogika instituti magistranti
xummedovaogilnavot@gmail.com*

Annotatsiya. O'zbek va turkman tillarida mustaqil so'z turkumlaridan biri bo'lgan ot so'z turkumining yasaliishi, o'zbek va turkman tillarida shaxs otini yasovchi qo'shimchalarning o'xshash jihatlari misollar orqali yoritildi.

Kalit so'zlar. Ot so'z turkumi, shaxs oti, morfologik va sintaktik usullar, yasama otlar, kasb-hunar otlari.

ÖZBEK VE TÜRKMEN DILLERİNDEKİ İSİM OLUŞTURMA EKLERİNİN BENZERLİKLERİ

*Hummedova Ogulnavat Mavlanberdiyevna,
Nukus devlet pedagoji enstitüsü'nün yüksek lisans öğrencisi*

Özet. Özbek ve Türkmen dillerinde bağımsız sözcük sınıflarından biri olan isim sözcük sınıfının oluşumu ve Özbek ve Türkmen dillerinde kişi adlarını oluşturan eklerin benzer yönleri örneklerle açıklanmıştır.

Anahtar kelimeler. Tîsim öbeği, şahıs zamiri, morfolojik ve sözdizimsel yöntemler, yapay isimler, meslek isimleri.

СХОДСТВА СУФФИКСОВ, ОБРАЗУЮЩИХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫЕ, В УЗБЕКСКОМ И ТУРКМЕНСКОМ ЯЗЫКАХ

*Хуммедова Огулнавог Мавланбердиевна,
магистрантка Нукусского государственного
педагогического института*

Аннотация. На примерах проиллюстрировано образование класса именных слов, являющегося одним из самостоятельных классов слов в узбекском и туркменском языках, а также сходство суффиксов, образующих личные имена существительные в узбекском и туркменском языках.

Ключевые слова. Именная группа, личное местоимение, морфологические и синтаксические методы, искусственные существительные, профессиональные существительные.

SIMILARITIES OF NOUN-FORMING SUFFIXES IN UZBEK AND TURKMAN LANGUAGES

*Khummedova O'gulnavot Mavlanberdiyevna,
master's student of Nukus state Pedagogical Institute*

Abstract. The formation of the noun word class, which is one of the independent word classes in the Uzbek and Turkmen languages, and the similarities of the suffixes that form personal nouns in the Uzbek and Turkmen languages were illustrated through examples.

Keywords. Noun phrase, personal pronoun, morphological and syntactic methods, artificial nouns, professional nouns.

Turkiy tillarda ot turkumiga mansub soʻzlar, asosan, morfologik va sintaktik usul bilan yasaladi. Morfologik usulda soʻzning negiziga maxsus yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish orqali ot hosil qilish tushuniladi. Sintaktik usulda esa bir necha soʻz ishtirokida ot hosil qilish nazarda tutiladi. Oʻzbek va turkman tillarida ot yasovchi qoʻshimchalar ot, sifat, son, olmosh, feʼl turkumidagi soʻzlardan ot yasashga xizmat qiladi. Masalan: kursdosh (otdan), chopiq (feʼldan), qiziqchi (sifatdan), birlik (sondan), oʻzlik (olmoshdan).

Turkman tilida otlar tuzilishi jihatdan ikki xil koʻrinishda boʻladi. Ular **“yasama atlar”**(yasama otlar) va **“asyl atlar”** (tub otlar). Miqdor jihatidan yasama otlar koʻp boʻlib, ular leksik maʼnoli turli xil soʻzlardan amalga oshadigan otlardir. Yasama otlar soʻz yasovchi affikslardan tashkil topadi. Turkman tilida, umuman, turkiy tillarda qoʻshimchalar orqali soʻz yasalishi juda muhim boʻlib, bu holatda koʻp sonli soʻz yasovchi affikslar qatnashadi va har xil leksik maʼnoli soʻzlarni amalga oshiradi. Otlar qoʻshimchalar orqali yasalishida ot yasovchi qoʻshimchalar bir-biridan farqlanadi.

Oʻzbek va turkman tillarida shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi qoʻshimchalar, asosan, otga qoʻshiladi va yangi maʼnoli ot hosil qiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. **-chi**. Bu qoʻshimcha barcha soʻz turkumlariga va boshqa tillardan kirgan soʻzlarga qoʻshilib, quyidagi maʼnolarni ifodalovchi otlar yasaydi: biror kasb bilan shugʻullanuvchi shaxs otlari: *sotuv+chi, oʻqituv+chi, haydov+chi, tarbiya+chi...*

Turkman tilida ham **-çy/ -çi** affiksi mavjud boʻlib, inson va uning hunari, kasbi bilan bogʻliq shaxs otlarini yasash uchun xoslangan. Masalan, *iş + çi, suw + çy, haly + çy, aw + çy, balyk + çy.....*[1:78]

2. **-dosh**. Bu qoʻshimcha negiz anglatgan shaxs yoki predmet bilan yashash, ishlash, oʻqish oʻrni va davri birga boʻlgan (yurtdosh, ovuldosh, kursdosh, tengdosh, zamondosh); ish harakati, xususiyati va holati umumiy boʻlgan (koʻmakdosh, safdosh, sirdosh, yostiqdosh, ohangdosh, suhbatdosh); dunyoqarash va qarindoshlik jihatidan yaqinlik maʼnosini ifodalaydigan (fikrdosh, maslakdosh, jondosh, qondosh, qarindosh) shaxs otlarini yasaydi. Shuningdek, bu qoʻshimcha yordamida ilmiy atamalar ham hosil qilinadi: *sifatdosh, ravishdosh, undosh, uyadosh, shakldosh, urgʻudosh*. Bu qoʻshimcha bilan shakllangan ayrim soʻzlar ham – old qoʻshimchasi orqali hosil qilingan otlarga sinonim boʻladi. Kasbdosh/hamkasb, suhbatdosh/hamsuhbat, qishloqdosh/hamqishloq.

Turkman tilida ham **-daş/-deş** ot yasovchi qoʻshimcha mavjud boʻlib, oʻzbek tilidagi kabi negiz anglatgan shaxs va predmet bilan yashash, ishlash, oʻqish oʻrni va davri birga boʻlgan, ish harakati, xususiyati va holati umumiy boʻlgan, qarindoshlik jihatdan yaqinlik maʼnosini ifodalaydigan shaxs otlarini yasaydi. Masalan, *ýol + daş, il +deş, kār +deş, at + daş, oba + daş, syr + daş, kurs + daş...*

3. **-kash**. «Shugʻullanuvchi», «tortuvchi» maʼnosidagi ot hosil qilishda ishlatiladi. Masalan: aravakash, paxsakash, suratkash, tuyakash.

Turkman tilidagi koʻrinishi **-keş** ushbu qoʻshimcha ham oʻzbek tilidagi kabi shugʻullanuvchi maʼnosidagi otlarni yasaydi. Masalan, *çilim +keş, araba + keş, tirýek + keş...*

4. **-bon**. Biror narsaga qarab turuvchi, qoʻriqlovchi shaxsni bildiruvchi ot yasashda ishlatiladi. Masalan: darvozabon, bogʻbon, saroybon.

Turkman tilida **-ban, -man** shaklida boʻlib, qarab turuvchi, qoʻriqlovchi shaxsni bildiruvchi otni yasashda ishlatiladi. Masalan, *bag+ban, saray+man...*

5. **-boz**. «Shugʻullanuvchi» maʼnosidagi ot hosil qilishda ishlatiladi: dorboz, kaptarboz, masxaraboz. Bu qoʻshimcha, koʻpincha, -voz tarzida talaffuz qilinadi, lekin – *boz* yoziladi.

Turkman tilidagi shakli **-baz** boʻlib, bu qoʻshimcha ham shugʻullanuvchi maʼnosidagi ot hosil qiladi. Masalan, *karta + baz, humar + baz...*

6. **-dor**. Otlarga qoʻshilib shu soʻz orqali fodalangan predmetga egalik yoki predmetning oʻshanga xos, taalluqli ekanligini bildiruvchi ot yasaydi: quldor, chorvador, amaldor, mansabdor.

Turkman tilida ham **-dar** affiksi mavjud boʻlib, *algy+dar, bergi+dar* soʻzlarida ushbu qoʻshimcha beruvchi va oluvchi shaxs otini yasagan.

7. **-shunos**. Negiz anglatgan soha bilan shug'ullanuvchi shaxs oti hosil qilishda ishlatiladi: *tilshunos, adabiyotshunos, sharqshunos, tuproqshunos, huquqshunos*.

Turkman tilida **-şynas** affiksi o'zbek tilidagi kabi biror soha bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasaydi: *gündogar + şynas, edebiyat + şynas..*

8. **-gar, -kar, -kor**. Negiz anglatgan predmet bilan shug'ullanuvchi muayyan kasb-hunarni, faoliyatni puxta egallagan ma'nolaridagi shaxs otlarni hosil qilishda ishlatiladi: *zargar, kimyogar, miskar, firibgar, tadbirkor, binokor, sholikor, san'atkor, ijodkor*.

Turkman tilidagi shakli **-kär, -gär** bo'lib, biror kasb-hunarni egallagan ma'nolaridagi shaxs otini yasaydi: *hizmat+kär, söwda+gär...[2:82]*

Xulosam shuki, o'zbek va turkman tillarida ot so'z turkumining yasallishini qiyoslash ya'ni o'xshash va farqli jihatlarini yoritish orqali ikki tilning bir-biriga yaqinligini, o'zbek tilida mavjud bo'lgan shaxs otlarining, turkman tilida ham xuddi shunday atalishini, yasallishini, ammo yozilishi va talaffuzida farqlarning mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. So'yunowa G, Nazarowa G, Muhammedowa B. Türkmen dili. umumy orta bilim berýän mekdepleriň 5-nji synpy üçin derslik. –A.: Daşkent «O'zbekiston», 2020. B.82
2. Esenmedowa A. Häzirki zaman türkmen dili (Morfologiýa). Ýokary okuw mekdepleri üçin okuw kitaby. – A.: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2010. B.78